

---

## QUVASOYDA FARG'ONA VILOYAT SUDINING SUDYALARI TOMONIDAN FUQAROLARNING MUROJAATLARI BO'YICHA SAYYOR QABUL O'TKAZILDI



Joriy yilning 12 noyabr kuni Quvasoy shahar Xalq qabulxonasi binosida Farg'ona viloyat sudining sudyalari T.To'rakulov hamda A.Xabibullayevlar shuningdek jinoyat ishlari bo'yicha Quvasoy shahar sudining raisi R.Zaripovlar tomonidan jinoyat va huquqbuzarliklar, nikohdan ajratish, tadbirkorlik sub'ektlari ishtirokidagi nizolar hamda fuqarolarning murojaatlari bo'yicha sayyor qabul o'tkazdilar.



Sayyor qabulga kelgan bir necha fuqarolar sudning hukmi bilan o'zlariga tayinlangan jazodan muddatidan oldin ozod etilishlari haqidagi murojaatlariga, sudyalar tomonidan keng va individual tarzda sudning hukmi bilan tayinlangan ozodlikni cheklash, ahloq tuzatish ishlari va muayyan huquqdan mahrum qilish jazolarni mehnatga xalol munosabatda bo'lgan, intizomiy ta'sir chorasini olmasdan o'tab bo'lganidan so'ng jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasiga qarab, IIB Probatsiya guruxi tomonidan sudga taqdimnoma kiritilib, sudning ajrimiga ko'ra o'talmagan jazodan muddatidan ilgari shartli ozod etilishlari haqida batafsil tushuntirishlar berildi.

**[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)**

[Facebook](#),

2021-11-16 17:09:25